




ANDIJON VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI



ANDIJON VILOYATIDA O'RTA-MAXSUS, PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI



ANDIJON VILOYATIDA O'RTA MAXSUS, PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMI



Professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida, 2020/2021- o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublikasida Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (TXST) darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etildi.

Ma'lumot uchun. Milliy ta'lim tizimlarining tuzilishi va ta'lim dasturlari mazmuni xilma-xilligi tufayli turli mamlakatlarning erishgan natijalarini taqqoslash solishtirish va ularning milliy va xalqaro miqyosdagi maqsadlar sari olg'a siljishini kuzatish qiyin bo'lishi mumkin. Global miqyosda ta'lim tizimlarining jihatlari va jarayonlarini tushunish va to'g'ri talqin qilish uchun ma'lumotlarning solishtirilishini ta'minlash ayniqsa muhimdir. Bunga xalqaro miqyosda taqqoslanadigan statistik ma'lumotlarni tasniflash va taqdim etish uchun kontseptual hujjat - Ta'limning Xalqaro Standart Klassifikatsiyasidan (TXST) foydalanish orqali erishish mumkin.

TXST-2011 tasnifi 2011- yil noyabr oyida YUNESKO Bosh konferensiyasining 36-sessiyasida qabul qilingan. Dastlab YUNESKO tomonidan 1970- yillarda ishlab chiqilgan va birinchi marta 1997- yilda qayta ko'rib chiqilgan TXST tasnifi milliy va xalqaro miqyosda ta'lim statistikasini yig'ish va taqdim etish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu hujjat butun dunyo bo'ylab ta'lim tizimidagi yangiliklarni yanada aniqroq aks ettirish uchun vaqti-vaqti bilan yangilanib turiladi.

O'RTA MAXSUS, PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

ANDIJON VILOYATIDA O'RTA MAXSUS, PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMI

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

PROFESSIONAL TA'LIM

**Boshlang'ich
professional
ta'lim**



**O'rta
professional
ta'lim**



**O'rta maxsus
professional
ta'lim**



Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX-sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

O'RTA MAXSUS, PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

ANDIJON VILOYATIDA O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIM MUASSASALARI SONI (2021/2022- o'quv yili boshiga)



ViLOYATDA o'quv yili boshiga jami 76 ta o'rta maxsus, kasb-hunar muassasalari faoliyat ko'rsatgan. Jumladan : akademik litseylar -5 ta, kasb-hunar maktablari-33 ta, kasb-hunar kollejlari-18 ta, texnikumlar - 20 ta.



Ma'lumot uchun


O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari tizimi - o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy, o'quv-metodik, moddiy-texnik va psixologik-pedagogik shart sharoitlarni ta'minlaydigan akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va texnikumlardan iborat.

O'rta maxsus, kasb-hunar tizimi o'quvchilarga egallagan kasb-hunar bo'yicha ishlash huquqini beradigan hamda bunday ish yoki ta'limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo'ladigan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beradi.

O'RTA MAXSUS, PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI


ANDIJON VILOYATIDA AKADEMIK LITSEYLAR SONI (2021/2022-o'quv yili boshiga, birlikda)

Ma'lumot uchun: O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.



Andijon viloyatida o'quv yili boshiga akademik litseylar soni 5 tani tashkil etadi. Ularning barchasi Andijon shahrida faoliyat ko'rsatmoqda.

AKADEMIK LITSEYLARDAGI O'QUVCHILAR SONI (2021/2022- o'quv yili boshiga, ming kishi)





**AKADEMIK LITSEYLARDAGI O'QUVCHILARNING
GENDER BO'YICHA TAQSIMLANISHI**
(2021/2022- o'quv yili boshiga, % da)



**Qiz bolalar
36,6 %**

Andijon viloyatida
2021/2022- o'quv yili boshida
akademik litseylarda jami 1,9
ming nafar o'quvchi tahsil
olmoqda. Jami o'quvchilarning
0,7 ming nafari yoki 36,6 % ni
qizlar, qolgan 63,4 % ni o'g'il
bolalar tashkil etadi.

**O'g'il bolalar
63,4 %**

**AKADEMIK LITSEYLARDAGI O'QUVCHILARNING
YOSHI BO'YICHA TAQSIMLANISHI**
(2021/2022- o'quv yili boshiga, % da)

O'quv yili boshida akademik
litseylarida taxsil olayotgan jami 1,9
ming nafar o'quvchilarning 0,2 ming
nafari 15 yoshli o'quvchilar, 0,9
ming nafari 16 yoshli o'quvchilar,
0,7 ming nafari 17 yoshli
o'quvchilar va 0,1 ming nafari 18
va undan yuqori yoshdagi
o'quvchilar tashkil etadi.





O'RTA MAXSUS, PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

AKADEMIK LITSEYLARGA QABUL QILINGAN VA BITIRGAN O'QUVCHILAR SONI (2021/2022 -o'quv yili boshida, kishi)



Yangi o'quv yilida viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan akademik litseylarga jami 802 nafar o'quvchilar qabul qilindi. Ularning 313 nafari yoki 39,0 foizini qizlar, qolgan 489 nafari, yoki 61,0 foizini o'g'il bolalar tashkil etadi.

O'tgan yil o'quv yili bilan taqqoslaganda ular soni 477 nafarga kamaygan.




2021- yilda viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan akademik litseylarni jami 1010 nafar o'quvchilar bitirdilar. Ularning 338 nafari yoki 33,5 foizini qizlar tashkil etadi.

O'tgan o'quv yili bilan taqqoslaganda ular soni 120 nafarga ko'paygan

**AKADEMIK LITSEYLARDA O'QITUVCHILARNING
GENDER TAQSIMOTI**

(2021/2022 -o'quvyili boshiga, % da)



Andijon viloyatidagi akademik litseylarda xizmat qilayotgan jami o'qituvchilar soni 100 foiz deb olinsa, ularning 54,8 foizini ayollar, qolgan 45,2 foizini erkaklar tashkil etadi.

AKADEMIK LITSEYLARDAGI O'QITUVCHILAR SONI
(o'quvyili boshiga, kishi)





2016/2017	570
2017/2018	481
2018/2019	387
2019/2020	204
2020/2021	187
2021/2022	198

O'RTA MAXSUS, PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

ANDIJON VILOYATIDAGI KASB-HUNAR MAKTABLARI SONI (2021-2022-o'quv yili boshiga, birlikda)


Ma'lumot uchun: Kasb-hunar maktablarida kadrlar tayyorlash umumta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hisobidan shakllantirilgan guruhlarda 2 yillik umumta'lim va mutaxassislik fanlarining integratsiyalashgan dasturlari asosida kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi.



*shu jumladan madaniyat va san'at maktablaring qo'shgan holda

O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI


KASB-HUNAR MAKTABLARIDA TAHSIL OLAYOTGAN O'QUVCHILAR SONI (o'quv yili boshiga, ming kishi)



O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

KASB-HUNAR MAKTABLARI O'QUVCHILARINING GENDER TAQSIMOTI

(2021/2022- o'quv yili boshida)



■ O'g'il bolalar ■ Qiz bolalar



Andijon viloyati




**O'g'il bolalar
71,5 %**

**Qiz
bolalar
28,5 %**


Agar viloyatdagi jami kasb-hunar ta'limi maktablaridagi barcha o'quvchilar 100 foiz deb olinsa, ularning 28,5 foizini qizlar, 71,5 foizini o'g'il bolalar tashkil etadi.

O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

KASB-HUNAR MAKTABLARIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN O'QITUVCHILARNING TAQSIMLANISHI (2021/2022- o'quv yili boshida, o'rindoshlarsiz, kishi)



■ 2021/2022 ■ 2020/2021




Viloyatdagi kasb-hunar maktablarida dars beradigan o'qituvchilar soni 895 nafarni tashkil etdi. O'tgan 2020/2021-o'quv yiliga nisbatan 134 nafarga yoki 1,2 barobarga ko'paygan.

Eng ko'p o'qituvchilar Andijon shahrida – 173 nafar, eng kami – Ulug'nor tumanida – 10 nafar qayd etilgan.

O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI


ANDIJON VILOYATIDA KOLLEJLAR SONI, *birlikda* (o'quv yili boshiga)



2021/2022- o'quv yili boshida Andijon viloyatida 18 ta kollejlarda faoliyat ko'rsatgan bo'lib, eng ko'pi Andijon shahri va Asaka tumanida (3 birlik) faoliyat ko'rsatadi


O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

KASB-HUNAR KOLLEJ O'QUVCHILARINING SONI, (*ming kishi*) (2021/2022 -o'quv yili boshiga)



■ 2021/2022 ■ 2020/2021

Andijon viloyati



2021/2022- o'quv yili boshida Andijon viloyatidagi 18 ta kasb-hunar kollejlari 10,6 ming nafar o'quvchi tahsil olmoqda.

Eng yuqori ko'rsatkich Asaka tumaniida (2,3 ming nafar), eng kam ko'rsatkich Xonobod shahrida (0,3 ming nafar) o'quvchi qayd etilgan.

O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI


KASB-HUNAR KOLLEJLARIGA QABUL QILINGAN O'QUVCHILAR SONI, (ming kishi) (o'quv yili boshiga)



2021/2022 - o'quv yilida viloyatdagi kasb-hunar kollejlariga jami 5,9 ming nafar o'quvchilar qabul qilindi. Ulardan 5,4 ming nafari yoki 91,2 % ni qizlar tashkil etadi.

Eng yuqori ko'rsatkich Asaka tumanida 1,5 ming nafar va Baliqchi tumanida 1,4 ming nafar qayd etildi.



KASB-HUNAR KOLLEJLARIDAGI BITIRUVCHILARI SONI, (*kishi*)



Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kasb-hunar kollejlarini 2021-yilda 374 nafar o'quvchilar tamomladilar. Jami bitiruvchilarning 359 nafarini yoki 96 foizini qizlar tashkil etadi.

Bitiruvchilar soni Andijon shahrida 123 nafar va Paxtaobod tumanida 85 nafar bo'lib viloyat bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichni qayd etdi.


KOLLEJ O'QITUVCHILARINING TAQSIMLANISHI
(o'quv yili boshiga, o'rindoshlarsiz, kishi)



2021/2022- o'quv yili boshida kasb-hunar kollejlarda 385 nafar (o'rindoshlarsiz) o'qituvchilar faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich 2020/2021- o'quv yiliga nisbatan 11,0 foizga oshgan.

O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

ANDIJON VILOYATIDA TEXNIKUMLAR SONI, *birlikda* (2021/2022-o'quv yili boshiga)




2021/2022

2020/2021


Andijon viloyatida
2021/2022- o'quv yili boshida
texnikumlar soni 20 tani tashkil
etdi. O'tgan 2020/2021- o'quv
yili boshiga nisbatan ular soni
3 taga ko'paygan.

O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

TEXNIKUM TALABALARINING TAQSIMLANISHI, *ming kishi* (*o'quvyili boshiga*)



Andijon viloyati



■ 2021/2022 ■ 2020/2021




2021/2022- o'quv yili boshida Andijon viloyatidagi texnikumlarda 11,1 ming nafar talaba tahsil olmoqda.

Eng yuqori ko'rsatkich Andijon shahrida (3,7 ming nafar), eng past ko'rsatkich Oltinko'l tumanida (0,3 ming nafar) talaba qayd etilgan.

O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

TEXNIKUMLARGA QABUL QILINGAN TALABALAR SONI (o'quv yili boshiga, ming nafar)



2021/2022-o'quv yilida Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan 20 ta texnikumlarga jami 4,3 ming nafar o'quvchi qabul qilindi. O'tgan o'quv yili bilan taqqoslaganda 0,4 ming nafarga kamaygan.

Eng yuqori ko'rsatkich Andijon shahrida - 1,4 ming nafar va Paxtaobod tumanida - 0,8 ming nafar qayd etildi.


2021- YILDA TEXNIKUMLARNI BITIRGAN TALABALAR SONI

2021-yilda Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan texnikumlarni jami 265 nafar talabalar bitirdilar.

Jumladan: Andijon shahrida 135 nafar va Asaka tumanida 130 nafar talabalar tamomladilar.



ANDIJON VILOYATI TEXNIKUMLARIDA FAOLIYAT
KO'RSATAYOTGAN O'QITUVCHILAR SONI, (o'rindoshlarsiz, kishi)
(2021/2022-o'quv yili boshida)



Statistik ko'rsatkichlarga izoh

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari tizimi – boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional, kasb-hunar ta'limi maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy, o'quv-metodik, moddiy-texnik va psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlaydigan akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlari, texnikumlardan iborat bo'ladi.

Akademik litsey – uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga davlat umumta'limi andozalari doirasida bepul umumiy ta'lim olishning kafolatlangan huquqi va imkoniyatini beradi.

Professional ta'lim – ta'lim oluvchilarda ma'lum bir mutaxassislik va kasblar bo'yicha kasbiy kompetentsiyalarni shakllantiradigan va rivojlantiradigan uzluksiz ta'lim tizimi.

Kasb-hunar maktabi — Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasasi hisoblanadi.

Kollejlari — Xalqaro tasniflagichning 4-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida o'rta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari hisoblanadi.

Texnikumlar — Xalqaro tasniflagichning 5-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan o'rta maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan, oliy ta'lim muassasalari huzurida faoliyat yuritadigan ta'lim muassasalari hisoblanadi.